Farg‘onaazot
aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz
www.azot.uz
fargonaazot.uz
AO Farg'onaazot
info@azot.uz
t.me/fargona_azot

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

# Kimyogar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

5-son (1728)
2024-yil,
24-iyun

# 27 IYUN — MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI




**Ma’lumki, so‘nggi yillarda Davlatimiz rahbari tomonidan ommaviy axborot vositalariga katta e’tibor qaratilib kelinmoqda. Xattoki, Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasida so‘z erkinligi – huquqiy davlat mezoni ekanligi belgilab qo‘yilganligi hozirgi kunda OAV vakillariga, jamoatchilik nazoratiga katta yo‘l ochganligining ko‘rsatkichidir. Mazkur kasb vakillari faoliyati to‘g‘risida 27 iyun — matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni arafasida so‘z yuritishni joiz deb topdim.**

Mamlakatimizda jurnalistik faoliyatga ochilayotgan imkoniyatlar to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz o‘z-o‘zidan ijtimoiy tarmoqlardagi faolliklar, jurnalistik surishtiruvlar hamda jamiyatimizda qabul qilingan qarorlar yodga keladi. Zero, bu ishlar zamirida xalq manfaati, huquqiy nazorat yotganligi, ayniqsa, yechimi bo‘lmayotgan yoki inson o‘zi hal qila olmayotgan muammolarni omma o‘rtasida hal bo‘layotganligi, nohaqliklar, “yopib yuborilayotgan ishlar”ni yoritilayotganiligi muammolarni qisman yoki to‘liq hal etilishiga olib kelmoqda. Bu ham bo‘lsa davlatimizni so‘nggi yillarda erishgan katta yutuqlaridan biri deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu o‘rinda, Shavkat Mirziyoyevning “Jurnalist hamda blogerlar jamiyatni va amaldorlarni “tarbiya qilyapti””. Ijro organi rahbari biron qaror qabul qilishdan oldin ilgari hech narsa o‘qimasdi, hozir kamida 10 marta o‘qiydi. Jurnalistlar menga qanday baho beradi, blogerlar nima deydi, degan savollarni o‘ziga beryapti. OAV vakillari islohotlarimizga juda katta ijobiy ta’sirini ko‘rsatyapti” – degan so‘zlari naqadar to‘g‘ri ekanligini anglab yetamiz.

Shuni bilish zarurki OAV vakillari mamlakatni “quyishqondan chiqib ketishini”, “o‘zboshimchalik”, “lavozimi, jinsi, vakolatidan foydalanib tazyiq o‘tkazish”, “tanish-bilishchilik va korrupsiya”ni urug‘lab ketishiga qarshi kurashuvchi katta kuchdir. Bejizga ular borasida to‘rtinchi hokimiyat deyilmaydi. — “Men, haqiqat va adolatni o‘z e’tiqodi deb biladigan barcha jurnalistlarni, islohotlarning faol ishtirokchilari, deb bilaman va ular hamisha Prezident himoyasida bo‘ladi. Bu fikrni bugun yana bir bor ta’kidlayman” – Sh.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

*27 iyun — matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan jamiyatimiz Matbuot xizmati xodimlarini korxona rahbariyati hamda o‘z nomimdan muborakbod etaman!*

*Axborot sohasidagi erkinlik va oshkoralikni ta’minlash hamda keng jamoatchilikka yetkazishda, ayniqsa, taraqqiyot va ijtimoiy hayot voqeliklarini xalq ommasiga yetkazishdek mashaqqatli ijodlariga muvaffaqiyatlar tilab qolaman. Barchangizga sog‘liq, oilaviy xotirjamlik, saodat va quvonch yor bo‘lsin. Bayram, muborak, aziz Hamkasblar! Qalamingiz hamisha o‘tkir bo‘lsin!*

E’zozxon ABDULLAYEVA.




Yoshlar oyligi

## JAHOLATGA QARSHI KURASHNING YAGONA YO‘LI - MA’RIFATDIR

Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jaholatga qarshi – ma’rifat”ni qurol qilgan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma’naviy meros o‘ziga xos najot qal’asi, himoya qo‘rg‘oni vazifasini o‘taydi. Mazkur so‘zlarga amal qilgan holda “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatida Yuridik bo‘limi, Komplayens nazorat xizmati hamda jamoat tashkilotlari hamkorligida seminar o‘tkazildi.

Seminar noodatiy suhbat tarzida bo‘lib, xodimlar va soha mutaxassislari ichki tartib-qoidalar, “Nafs balosi”, uning oqibatlari, turli xil illatlar, huquqbuzarliklar, ularni oldini olish, tartibbuzarliklarga qonuniy choralar ko‘rish kabi millatimizni jar yoqasiga yetaklayotgan hislatlar to‘g‘risida so‘z yuritdilar.







2

## TUG‘ILGAN KUNINGIZ MUBORAK BO‘LSIN!



Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi boshlig‘i Farxod Mashrapovich Sayfutdinov joriy yilning 22-iyun sanasida o‘zining 46 yoshini qarshi oldi.

Shu munosabat bilan Farxod akani korxona ma’muriyati va Xodimlar bilan ishlash boshqarmasi nomidan tabriklaymiz.

***Sizni jamiyatimiz rivojidagi hissangiz va halol mehnat faoliyatingizdagi jonbozligingizni yuksak e’tirof etgan holda kattadan katta muvaffaqiyatlar tilab qolamiz. Sog‘liq va oilaviy xotirjamlik doimo hamrohingiz bo‘lsin!***

# JAHOLATGA QARSHI KURASHNING YAGONA YO‘LI - MA’RIFATDIR

(Boshlanishi 1-betda).

Yuridik bo‘limi boshliq o‘rinbosari Mahmudjon Qayumov o‘z nutqida nafs tarbiyasining bosqichlari to‘g‘risida batafsil so‘zlab berdi. Uning so‘zlariga ko‘ra, inson zotining boshiga tushadigan balolarning aksariyatiga badnafsligi sabab bo‘ladi. Shuning uchun nafsni har doim tergab, davolab turish lozim. Bu esa Allohdan tavfiq va yordam so‘rashdir. Nafsni Alloh yaratdi. Uning holatini, qiladigan ishlarini bizdan ko‘ra yaxshiroq biladi. Nafs balosidan yurgan yo‘limizda Allohdan panoh so‘rshimiz zarur. Har birimiz o‘z nafsimizni jilovlay olishimiz lozimdir. Kimki nafsining hoyu havaslariga ergashsa ya’ni nafsiga qul bo‘lsa Alloh taoloning rahmatidan uzoqlashadi.

Komplayens nazorat xizmati boshlig‘i G‘ofurjon Jabborov ishchi – xodimlarga turli xil illatlar oqibatlari, javobgarliklari haqida so‘zlab berdi. Uning so‘zlariga ko‘ra nafsiga qul bo‘lib panjara ortidan qarayotgan, oilasi va o‘z sha’niga dog‘ tushirgan shaxs talaygina. Ularning voqealaridan har bir inson yaxshi ibrat olib bunday harakatlarni takrorlamasliklari, halol rizqqa erishishga intilish lozim.

Suhbat barcha uchun ibratli kechdi. Xodimlar seminar bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib o‘tdilar va bu borada taklif va savollar bilan mutaxassislarga yuzlandilar.

**E’zozxon ABDULLAYEVA.**






# XULQ-ATVORNING LOKUS NAZORAT STRATEGIYASI VA YOSHLARDA GENDER TENGLIK BO‘YICHA TO‘G‘RI XULOSA SHAKLLANTIRISH

**Mazkur mavzu bo‘yicha “Yoshlar oyligi” doirasida jamiyatning yosh mutaxassislari uchun qiziqarli seminar-trening tashkil etildi.**

**Seminarga amaliyotchi psixologlar va korxona psixologi N. Ergasheva tashrif buyurishdi. Treningda insonning psixologik holatiga bog‘liq bo‘lgan turli ma’lumotlar, jumladan, emotsiyalarni boshqarish, xulq-atvorni ijobiy shakllantirish, psixologik yetuklik darajasini tashhis qilish, insonlar bilan psixologik aloqa o‘rnatish kabi mavzularda suhbatlar va testlar o‘tkazildi.**

Shu o‘rinda, seminar ishtirokchilariga gender tenglikka oid malumotlar berib o‘tildi.

-Aslida gender tenglik, ya’ni erkaklar va xotin-qizlar tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu omil eng yuqori darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotning ham negizidir. Chunki mutaxassislarning fikricha, faqat erkaklardan iborat jamoaga nisbatan 50/50 foiz erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari, ayniqsa agar ular aqliy mehnat bilan band bo‘lsa, bir necha barobar yuqoriroq natija ko‘rsatar ekan. Qolaversa gender tenglik – bu mamlakatning demokratik taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi indikator. Demak, rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish, yurtimizga tobora ko‘proq investitsiyalar jalb qilish uchun ham shu indikatorga yetarlicha ahamiyat berishimiz kerak – dedi o‘zining nutqida Nurmurod Sirojov.

Yuridik bo‘limi boshlig‘i Nasiba Umarovnaning so‘zlariga ko‘ra, ko‘lamdor va salmoqli natijalarga erishish uchun esa umumiy reja ko‘rinishidagi hujjat, oddiy til bilan aytganda, dasturul amal kerak. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda aynan shu hujjat – 2020–2030 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi loyihasi ishlab chiqilgan.

Ushbu tarixiy hujjat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 2017 – 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan mamlakatni rivojlantirishning ustuvor vazifalari hamda 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan. Unda gender tenglikni ta’minlashning asosiy tamoyillari qatorida qonuniylik, demokratiya, ochiqlik va oshkoralik prinsiplari belgilangan. Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta’minlashga qaratilgan mazkur hujjat tez orada jamoatchilik e’tiboriga havola qilinib, u bo‘yicha keng muhokamalar o‘tkazilishi rejalashtirilmoqda.

**O‘z muxbirimiz.**

# SOG‘ TANDA SOG‘LOM AQL



Korxona rahbariyati tomonidan “Yoshlar oyligi” doirasida yosh ishchi-xodimlar o‘rtasida sport musobaqalari o‘tkazish borasida yo‘l xaritasi tasdiqlangan bo‘lib, kuni-kecha yoshlar o‘rtasida stol tennisi musobaqasi bo‘lib o‘tdi.

Mazkur sport tadbiri Yoshlar ittifoqi hamda Kasaba uyushmasi qo‘mitasi hamkorlikda tashkil etilgan bo‘lib, unda korxonanining tarkibiy bo‘linmalarida faoliyat yuritayotgan 20 nafardan ziyod yosh ishchi – xodimlar ishtirok etishdi.

Qizg‘in va murosasiz kechgan bellashuvda omad Elektr ta’minoti sexi ishchilariga kulib boqdi. Yarim final va final o‘yinlari natijalariga ko‘ra 1-o‘rinni Abduhamid Maxamadaliyev, 2-o‘rinni Izzatulloh Qosimov va 3-o‘rinni Shohruh Rustamovlar egalladilar.

**O‘z muxbirimiz.**



# “ENG FAOL YOSH KITOBXON - 2024”

Joriy yilning 7-iyun kuni kitob va kitobxonlikni targ‘ib qilish natijasida xodimlar, ayniqsa yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, huquqiy tarbiyani yanada oshirish, milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonamizda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mohiyatini, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini singdirish, boy adabiy merosimizga nisbatan mehr-hurmatni kuchaytirish hamda korxona ravnaqiga hissa qo‘shadigan intellektual salohiyatga ega yosh kadrlar zahirasini yaratish maqsadida “Eng faol yosh kitobxon - 2024” ko‘rik-tanlovi o‘tkazildi.

Tanlovni yuqori saviyada o‘tkazish, shaffoflik va xolislikni ta’minlash uchun filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Koreya Xalqaro Universiteti professori Muqaddamxon Ehsanova, Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot -kutubxona markazi direktori Husniyaxon Shermatova va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a’zosi Shoxrux O‘ktamovlar taklif etildi.

Ishtirokchilar avvaldan tasdiqlangan, o‘qilishi lozim bo‘lgan kitoblar mutolaasidan 3 ta shart bo‘yicha bellashdilar. Yig‘ilgan ballar natijalariga ko‘ra, 1-o‘rinni 44 bal bilan Aloqa sexi payvandchisi Feruza No‘monjonova, 2- o‘rinni 43 bal bilan Mochevina ishlab chiqarish sexi laboranti Manzura Pozilova va 3-o‘rinni 40 bal bilan Markaziy kimyo laboratoriyasi laboranti Oydinoy Abduraximovalar egallab Kasaba uyushmasi qo‘mitasi hamda Yoshlar ittifoqi Kengashining qimmatbaho sovg‘alari va diplomlarini qo‘lga kiritdilar.

Qolgan ishtirokchilar ham e’tibordan chetda qolganlari yo‘q. Ularning barchasiga kitoblar to‘plami va faxriy yorliqlar ulashildi.

**O‘z muxbirimiz.**





# TAJRIBA ALMASHINISH

**Jamiyatda Farg‘ona politexnika instituti Mexanika-mashinasozlik fakulteti “Mashinasozlik texnologiyasi va avtomatlashtirish” kafedrasi professor-o‘qituvchilari A.M. Gafurov, R.S. Ulug‘xojayev hamda M.A. Rustamovlar korxonaning yetakchi mutaxassislari bilan uchrashdilar.**

Uchrashuvda korxonaning Ishlab chiqarishni nazorat qilish va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi loyiha sektori innovatsiya menejeri va Mexanik ta’mirlash sexi yetakchi mutaxassislari bilan korxonada mahsulotlarni ishlab chiqarish, murakkab shaklli yuzalarga ega detallarga ishlov berish va yengil avtomobillarni ko‘tarish mexanizmi (domkrat)ni yig‘ish jarayoni bilan yaqindan tanishdilar. Shu o‘rinda, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, korxonadagi mavjud dastgoh va qurilmalarning texnik imkoniyatlari bilan tanishib chiqib, o‘zaro fikr va tajriba almashdilar.

Kelgusida korxonadagi ilmiy va amaliy ishlar yuzasidan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, korxonaning rivoji uchun kerakli bo‘ladigan shartnomalar tayyorlash bo‘yicha kelishib olindi.

**Muhammadsobir XOLMATOV,**
**Ishlab chiqarishni nazorat qilish va loyihalarni amalga oshirish boshqarmasi loyiha sektori innovatsiya menejeri**

# KARTADAN KREDIT VA BOSHQA TO‘LOVLARGA EGASINING ROZILIGISIZ PUL YECHIB OLISH QAT’IY TAQIQLANMOQDA

**Markaziy bank tijorat banklari, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tizimlaridan “mijozning roziligisiz va uni ogohlantirmagan holda uning kartasidan kredit va boshqa qarz to‘lovlari uchun mablag‘larni akseptsiz yechib olish” amaliyotiga chek qo‘yishni qat’iy talab qilmoqda. Bu bo‘yicha Markaziy bank boshqaruvi raisi o‘rinbosari tomonidan imzolangan tegishli xat joriy yil 21dekabr kuni tijorat banklari, to‘lov tizimi operatorlari va to‘lov tizimlariga yuborilgan (xat nusxasi Bankers.uz’da mavjud).**

Xatda tijorat banklari tomonidan fuqarolarning bank kartalaridan mablag‘larni masofaviy xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali kredit to‘lovlari uchun avtomatik tarzda hisobdan chiqarish (avtoto‘lov) jarayonlarida amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilayotgani, bu borada bir necha bor murojaatlar kelib tushayotgani qayd etilgan.

Bundan tashqari, ayrim banklar kredit ta’minoti sifatida sug‘urta polisi olayotgani bois, ushbu kreditlar belgilangan muddatda qaytarilmagan taqdirda, sug‘urta tashkiloti tijorat bankiga kredit qarzdorligini to‘liq qoplab berayotganligi, natijada bankning majburiyat (kredit) bo‘yicha qarz oluvchiga bo‘lgan huquqlari sug‘urta tashkilotiga o‘tganligi uchun, sug‘urta tashkiloti qarz oluvchining bank kartalaridan mablag‘larni akseptsiz tarzda yechib olayotgan holatlar tanqid qilingan.

Xatda ta’kidlanishicha, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga ko‘ra, mijozning topshirig‘isiz hisobvaraqda turgan pul mablag‘larini o‘chirishga sudning qarori bilan, shuningdek ushbu Kodeksda yoki boshqa qonunda belgilab qo‘yilgan yoxud bank bilan mijoz o‘rtasidagi shartnomada nazarda tutilgan hollardagina yo‘l qo‘yiladi.

-Qarz oluvchi bilan sug‘urta tashkiloti o‘rtasida qarz oluvchining bank kartalaridan mablag‘larni akseptsiz tarzda yechib olish yuzasidan shartnoma tuzilmagan va bunday huquqning nobank tashkilotlariga berilishi qonunchilikda ham ko‘zda tutilmagan. Bundan tashqari, ayrim to‘lov tashkilotlari tomonidan sug‘urta tashkilotlarini «E-POS” maxsus terminallar bilan ta’minlab berilganligi natijasida, ularga qarz oluvchilarning bank kartalaridan mablag‘larni akseptsiz tarzda yechib olishiga imkon yaratib berilgan. Bu esa, fuqarolar tomonidan bank kartalaridan foydalanmaslikka yoki karta hisobvarag‘ida pul mablag‘larini saqlamaslikka olib kelmoqda. (Markaziy bank xatidan)

Tijorat banklari tomonidan fuqarolarning bank kartalaridan pul mablag‘larini ushbu bank kartalari egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlamagan holda hisobdan chiqarilishiga (shuningdek, bunday imkoniyatni sug‘urta tashkilotlari uchun yaratilishiga) yo‘l qo‘yilganligi faktlari iste’molchilarining huquqlari buzilganligi holati deb baholanadi hamda bunday qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ygan tijorat banklariga nisbatan belgilangan tartibda chora ko‘rilishiga sabab bo‘ladi, deb ta’kidlagan Markaziy bank.

Shuningdek, Markaziy bank “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o‘zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risida”gi Nizomga (3030-sonli, 2018-yil 2 -iyul) muvofiq, bank tomonidan kreditlar, mikroqarzlar va lizing bo‘yicha qarzdorliklarni so‘ndirishda avtoto‘lov usulidan foydalanganda, bank keyingi ish kuni hisobvaraq (omonat, karta) egasiga mablag‘ qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda xabarnoma (ma’lumotnoma) yuborishi shartligini eslatib o‘tgan. Shunindek, bu borada tegishli ko‘rsatma xatlari o‘tgan yilning mart oyida va joriy yilning yanvar oyida tijorat banklariga yuborilganini aytgan.

Xat yakunida Markaziy bank tijorat banklaridan:

- fuqarolarning bank kartalarini (tijorat banki bilan tuzilgan o‘zaro shartnoma yoki oferta asosida) avtoto‘lov xizmatiga ulanishi to‘g‘risida SMS-xabarnoma orqali o‘z vaqtida xabardor qilishni;
- avtoto‘lov xizmati orqali amalga oshiriladigan to‘lovlarda “qaysi kredit to‘lovi uchun va kimning foydasiga” undirilayotganligi haqida SMS tarzda bank karta egasiga xabarnoma jo‘natilishi hamda karta egasi rozilik bergan taqdirda to‘lovni amalga oshirish mexanizmini yaratishni;




- kreditlar bo‘yicha qarzdorning va «kafil»ning shartnomada nazarda tutilgan tartibda bank kartasidan pul yechilish jarayonida uning mobil raqamiga “roziligini so‘rash, yuzasidan SMS-xabarnoma yuborish va ushbu xabarnomada qaysi ‘to‘lov uchun pul yechilishi to‘grisida to‘liq va aniq ma’lumot ko‘rsatilishi va uning roziligini olgan holda to‘lovni amalga oshirishni;

-xatarlarni minimallashtirish hamda firibgarlikni oldini olish maqsadida tijorat banklari va to‘lov tashkilotlari mobil ilovadan foydalanuvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tishda, mobil ilovaga bank kartalarini biriktirishda, mikroqarz, kredit rasmiylashtirish amalga oshirilganda mijozlarni identifikatsiyalash uchun qo‘shimcha tarzda Face ID mexanizmini joriy etishni;

- mijozlarga mikroqarz va kredit ajratishda uning yaqin qarindoshlari yoki tanish-bilishlarining mobil raqamini tizimga kiritishdan avval ularning raqamlariga tasdiqlovchi kod yuborish va ular rozi bo‘lganda jarayonlarni davom ettirishni;

Bank kartalaridan mablag‘larni akseptsiz tarzda yechish jarayonida qonun hujjatlariga qat’iy rioya qilinishini so‘ragan.

Markaziy bank yuqoridagi topshiriqlar ijrosi nazorati borasida shu yil 29 - dekabrga qadar Markaziy bankka hisobot taqdim etilishini talab qilgan, aks holda qonunchilikka muvofiq to‘lov tizimlaridan o‘chirish yoki jarima sanksiyalari qo‘llanilishi mumkinligi to‘g‘risida ogohlantirgan.

**Bankers.uz’**

# РАБОТНИКАМИ ПРЕДПРИЯТИЯ ПРОВЕДЕНА ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ АКЦИЯ «ПЛОГГИНГ», ПРИУРОЧЕННАЯ КО ВСЕМИРНОМУ ДНЮ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

**Как и во всем мире, в нашей стране особое внимание уделяется вопросам экологии окружающей среды. По традиции 5 июня - Всемирный день окружающей среды. В этот день в Узбекистане проводятся экологические акции направленные на привлечение внимания общественности к проблемам экологии.**








В этом году данная экологическая акция проводится под лозунгом «Мы заботимся о природе», на котором активное участие приняли работники АО «Farg‘onaazot».

Организаторами данного мероприятия выступил отдел Охраны окружающей среды управления ОТ, ТБ, ООС и ПБ ОПО совместно с Союзом молодежи предприятия. В ходе экологической акции на прилегающей территории предприятия и на улицах города Ферганы, Киргулийского района, волонтёрами из числа молодых работников и всех тех, кому не безразлична чистота окружающей среды, была проведена уборка от мусора и других отходов. В целях минимизации негативного влияния на окружающую среду отходов, весь собранный мусор был отсортирован.

На этом мероприятии сотрудники предприятия ещё раз продемонстрировали свою твёрдую гражданскую позицию по сохранению природы и приверженность экологическим практикам.

# СОСТОЯЛСЯ КРУГЛЫЙ-СТОЛ НА ТЕМУ «ПРОСВЕЩЕНИЕ ПРОТИВ НЕВЕЖЕСТВА»

**6 июня текущего года в актовом зале предприятия было проведено духовно-просветительское мероприятие на тему «Просвещение против невежества».**





На мероприятии принимали участие рабочие и служащие цехов и отделов ответственные за духовно-просветительскую работу в коллективах.

Данное мероприятие, проходившее в формате круглого стола, было организовано с целью разъяснения молодёжи сути исторического единства и гармонии национальных, религиозных и общечеловеческих ценностей. Выступление заместителя начальника юридического отдела М. Каюмова и начальника службы комплаенс контроля Г. Жабборова было интересным и во многом поучительным. В ходе выступления докладчиков поднимались актуальные проблемы современности, в частности негативные явления в жизни общества, связанные с невежеством.












# НА ПРЕДПРИЯТИИ ПРОВОДИТСЯ ЭФФЕКТИВНАЯ РАБОТА ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ПРОМЫШЛЕННОЙ И ПОЖАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ И ПРЕДУПРЕЖДЕНИЮ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ

Управлением ОТ, ТБ, ООС и ПБ совместно с отделом по обеспечению пожарной безопасности на объектах АО «Farg‘onaazot», а также спасательным отрядом, Режимно-секретным управлением, ведомственной военизированной охраной предприятия, Национальной гвардией были организованы практические учебно - тактические занятия и профилактические беседы для работников цеха Хлората магниевого дефолианта (ХМД). Целью проведения данного мероприятия было повышение эффективности промышленной безопасности и противопожарной профилактики на опасном производственном объекте, предотвращения возможных чрезвычайных ситуаций техногенного и природного характера. В ходе проведённого учебно - тактического занятия при непосредственном участии работников были отработаны практические навыки действий во время пожаров, отравлений, землетрясений, а также рассмотрены вопросы строгого соблюдения правил дисциплины на предприятии.

Учебно-тактическое занятие проходило в интересной и познавательной форме, все участники данного мероприятия получили необходимые знания и навыки по действиям при чрезвычайных ситуациях.

# СТРАТЕГИЯ ЛОКУС КОНТРОЛЯ В ПОВЕДЕНИЕ МОЛОДЕЖИ

**12 июня текущего года, для молодых специалистов общества был организован интересный семинар-тренинг на эту тему.**










12 июня текущего года, для молодых специалистов общества был организован интересный семинар-тренинг на эту тему «Стратегия локус контроля в поведении молодёжи».

Семинар проводила психолог предприятия Наргиза Эргашева ей в этом ассестировали практикующие психологи города Ферганы. В ходе семинара были проведены интервью и тесты на различные темы, связанные с психологическим состоянием человека, включая управление эмоциями, формирование позитивного поведения, диагностику уровня психологической зрелости, установление психологических взаимоотношений с людьми. Также на семинаре были затронуты вопросы гендерного равенства, практические советы специалистов, которые нашли живой отклик у участников семинара.

По завершению семинара состоялась беседа с психологом предприятия Н. Эргашевой в стенах редакции газеты «Кимёгар», выдержки из которого было решено опубликовать в июньском номере газеты.

**Понятие локус контроль для многих людей далёких от психологии термин незнакомый, поэтому расскажите пожалуйста для наших читателей что такое локус контроль?**

—Если говорить простыми словами локус контроль — это склонность человека искать причины своего поведения и приписывать ответственность за его результаты либо внешним обстоятельствам, либо своим усилиям и способностям.

Впервые данное понятие ввёл в оборот американский психолог Джулиан Роттер в середине XX века. Он выделил два типа локуса контроля:

Внешний (экстернальный) — поиск причин своего поведения вне себя, то есть в своём окружении или во внешних обстоятельствах.

Внутренний (интернальный) — поиск причин своего поведения внутри себя.

К слову скажу, для определения типа, к которому относится та или иная личность в психологии прибегают к помощи теста Роттера.

Позже развивая данный тезис учёные - психологи выдвинули теорию о третьем типе, амбернальном, — это поиск причин происходящего в жизни вовне или внутри себя в зависимости от ситуации. Получается, что этот локус контроля совмещает в себе внутренний и внешний типы. Люди с амбернальным типом каждую ситуацию оценивают отдельно и, в зависимости от контекста, решают брать им ответственность за происходящее на себя или всё-таки приписывать её внешним обстоятельствам.

**Как локус контроля связан с умением решать проблемы, способностью к самоконтролю?**

—Я постараюсь более широко осветить на этот вопрос. При рассмотрении локуса контроля с некоторыми характеристиками личности необходимо учитывать деление только на внутренний и внешний типы, поскольку существование амбернального типа пока не подтверждено и является научной гипотезой. Есть исследование, которое показывает, что люди с высоким уровнем локуса контроля внимательно относятся к проблемам со своим здоровьем, не избегают их, а также в целом стараются в любых трудных жизненных ситуациях действовать активно. Как известно с развитием научно-технического прогресса, и быстро меняющей конъюнктурой на рынке труда некогда востребованные профессии в современном мире теряют свою актуальность и уходят в прошлое. В этой связи заслуживают внимания результаты исследований психологов, которые изучали локус контроля безработных и пришли к выводу, что люди с внутренним локусом контроля в ситуациях, когда у них нет постоянной работы, отличаются более позитивным настроем, активно ищут и быстрее находят способы временного заработка.

Люди же с внешним локусом контроля, наоборот, испытывают психологические трудности, когда остаются без работы. У них менее оптимистичный взгляд на то, что они способны найти подходящее место, и, как следствие, им сложнее даётся сам поиск.

**Насколько верным является утверждение, что нужно развивать внутренний локус контроля и стремиться именно к нему. Так ли это?**

—С одной стороны, если человек склонен полагаться на себя, то в сложных ситуациях он не будет чувствовать себя жертвой и пассивно наблюдать за происходящим в своей жизни.

С другой стороны, это может превратиться в крайность. Идея о том, что всё в нашей жизни зависит исключительно от нас, — утопическая. Из-за неё у людей нередко развивается повышенное чувство ответственности и вины.

Во многих жизненных ситуациях мы сталкиваемся с людьми, которых не можем контролировать и с обстоятельствами, на которые не можем повлиять. К тому же мы не умеем предвидеть форс-мажоры.

Поэтому важно понимать зону своей ответственности. В ситуации, когда вы запутались или не можете найти выход, стоит остановиться и спросить себя: «В чём моя зона ответственности?»

Отвечайте на этот вопрос размеренно, неимпульсивно, давая себе необходимое время на раздумья. И периодически возвращайтесь к рефлексии, так как каждая ситуация развивается, и зона вашей ответственности может меняться.

Иногда нужно признать: при сложившихся условиях вы никак не можете повлиять на ситуацию. Примите это и пообещайте себе вернуться к размышлениям позже.

Бывают случаи, когда человек ходит к психологу, читает книги и статьи на тему эмоционально здорового общения и приходит к твёрдому убеждению, что необходимо напрямую говорить о своих желаниях в уважительной форме, без агрессии и сразу, не затягивая. Пробует поступать таким образом, и это в некоторых ситуациях даёт положительный результат.

Но иногда оппонент избегает, ведёт себя пассивно-агрессивно и не хочет говорить прямо, без намёков и загадок.

Так где начинается и заканчивается зона ответственности в межличностных отношениях и какой совет вы дадите?

Во-первых, я предложу тактику общения, при котором необходимо продолжать общаться прямо и откровенно.

В-третьих, надо попросить партнёра говорить так же прямо, не увиливать, не проявлять агрессию. Если им даны обещания, но у него не получается его сдержать, не надо додумывать, а лучше спросить, в чём проблема.

Необходимо оставаться в реальности и объективно оценивать обратную связь от своего партнёра. Иными словами, не надо додумывать, а лучше воспринимать слова партнёра такими, какими они есть. Не надо строить иллюзий и не оправдывать его поведение. Необходимо дать себе конкретный период времени, в течение которого человек перестроится на эмоционально здоровую форму общения.

Если человек не меняется, принять этот факт и решить, подходит такой вариант развития событий или нет. В случае продолжения отношений, то это должно быть сделано осознанно, не питая иллюзий о том, что когда-нибудь это изменится. При решении расстаться также необходимо взять ответственность за свой выбор: сказать о расставании прямо, без избегания и упрёков.

В конце скажу: не все жизненные ситуации находятся в нашей воле, необходимо чётко разграничивать что входит в зону нашей ответственности, а что нет. Например, поведение партнёра, в этом случае можно лишь показать ему пример эмоционально здорового общения, но следовать ли этому примеру — его ответственность.

Эмоции, чувства и действия партнёра не являются вашей ответственностью. Если он захочет поделиться ими с вами — окажите поддержку, проявите заботу. Если человек не желает разбираться в себе, не делится, не говорит напрямую — помните, что вашей вины в этом нет.

Резюмируя вышесказанной, добавим, что целью проведения таких семинаров – тренингов является научить молодёжь предприятия ставить перед собой цель на будущее, научить их внутренней мотивации в процессе работы, а также разъяснить им, как предотвращать эмоциональное выгорание на работе.



# ПОДРОБНОСТИ КОНКУРСА

# «МОЛОДОЙ КНИГОЛЮБ-2024»

**В целях широкого изучения и пропаганды творческого наследия великих ученых, поэтов и мыслителей в АО «Farg'onaazot» по традиции ежегодно проводятся конкурсы любителей книги среди работников предприятия.**

**Проведение подобных конкурсов на предприятии дало определенный импульс развитию читательской культуры среди работников предприятия и сегодня становиться престижным участие в столь значимых конкурсах.**

В этом году в конкурсе «Молодой книголюб-2024» участвовали работники прошедшие отборочный этап конкурса в структурных подразделениях общества.

Членами жюри конкурса были, член Молодёжного парламента при Законодательной палате Олий Мажлиса Шохрух Уктамов, профессор филологии преподаватель узбекского языка Узбекско-корейского международного университета «KIUF» Мукаддам Эхсанова, директор Ферганского областного «Информационно-библиотечного центра имени Ахмада аль-Фаргони» Хусния Шерматова.

В соответствии с Положением о проведении конкурса молодые книголюбы должны были на первом этапе провести презентацию и ответить на вопросы жюри. На втором этапе конкурсанты должны были продемонстрировать свои знания в области узбекской и мировой литературы. Так по условиям данного этапа книголюбы должны были угадать название книги из приведённого отрывка, а также продолжить цитату. На третьем этапе каждый участник согласно задания должен был написать краткую аннотацию к литературному произведению.

Конкурс проходил в атмосфере высокой состязательности и всё же членам жюри необходимо было выбрать лучшего.

Все три условия были беспристрастно оценены членами жюри и оглашены результаты: получившей наибольшее количество балов в конкурсе работнице цеха Связи Ферузе Нумонжоновой было присуждено 1-место, лаборанту цеха по производству Мочевины Позиловой Манзуре было присуждено 2-место и почётное 3-е место заняла работница Центральной химической лаборатории Ойдиной Абдурахимова.

Призёры конкурса «Молодой книголюб-2024» были поощрены дипломами и ценными подарками Профсоюзного комитета и Совета Союза молодёжи предприятия.

## НА ПРЕДПРИЯТИИ ПРОШЛИ СПОРТИВНЫЕ СОРЕВНОВАНИЯ ПО НАСТОЛЬНОМУ ТЕННИСУ

**20 июня в АО «Farg'onaazot» были проведены соревнования по настольному теннису среди молодых сотрудников предприятия, осуществляющих свою трудовую деятельность в структурных подразделениях общества. Соревнования были приурочены к празднованию 30 июня-Дня молодёжи Узбекистана. На данном спортивном соревновании, организованном при деятельном участии Профсоюзного комитета и Союза молодёжи предприятия, приняли участие 20 игроков, любителей настольного тенниса.**





Несмотря на то, что все участники соревнования показали бескомпромиссную борьбу и всё своё мастерство владения теннисной ракеткой, на полуфинал игры вышли работники цеха Электроснабжения. Которые и поборолись за призовые места в финале.

По итогам финальной игры призовые места распределились следующим образом:

1-место занял Махамадалиев Абдухамид;

2-место досталось Косимову Иззатуллоху;

3-место досталось Рустамову Шохруху

Напоминаем: спортивные соревнования по другим видам спорта посвящённые празднованию 30 июня-Дня молодёжи Узбекистана будут продолжены. Церемония награждения победителей соревнований состоится по итогам всех игр.

## ЧЕМ ОПАСНА ЖАРА ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ ЧЕЛОВЕКА



**Жаркое летнее солнце вот уже четвёртую неделю подряд согревает Ферганскую область. Лето – это прекрасная пора для отдыха. Солнечные лучи дают бесплатный солярий для загара и большую порцию витамина D. Но так ли дружелюбно в жару безоблачное небо над головой? Раскаленный воздух, отсутствие дождей, в городах – разогретый асфальт, поднимающий температуру на 2-3 градуса выше, чем в сельской местности – всё это становится настоящим испытанием для многих людей.**

О том, как защитить себя от палящего солнца и сохранить здоровье в условиях экстремальной жары, которая всё чаще наблюдается в наших краях в последние годы расскажет на страницах газеты «Кимёгар», заместитель главного врача Лечебно-оздоровительного диагностического цеха, врач-терапевт Сураё Эргашевна Садикова.

Сураё Эргашевна, прежде всего хочу поблагодарить Вас, что не пожалели своего времени и согласились дать интервью нашей газете. Лето в нашей стране всегда было жарким, но в последние годы температура бьёт все рекорды. По предсказаниям синоптиков это лето обещает быть особенно жарким.

**И в этой связи скажите пожалуйста какие опасности для здоровья несёт с собой такая жара?**

- Действительно, экстремальная жара – это серьёзное испытание для организма. Организм человека устроен так, что идеальная для жизни температура составляет 36,7 градуса. В жаркую погоду лишнее тепло выходит через пот. Нарушение водно-солевого баланса охлаждение организма может привести к тепловому удару или тепловому истощению. Симптомы этих состояний включают головную боль, головокружение, тошноту, слабость, потерю сознания.

**Насколько опасно находится под палящим солнцем летом?**

- Хочу отметить, что ультрафиолетовые лучи солнца, особенно в условиях изменения климата и усиления солнечной активности, представляют собой ещё одну серьёзную опасность. Длительное пребывание на солнце может вызвать солнечные ожоги, преждевременное старение кожи, а в худшем случае – рак кожи.

**Что бы Вы порекомендовали нашим читателям, чтобы защитить себя от жары и палящего солнца?**

- Вот несколько важных советов:

* Ограничьте пребывание на солнце с 11:00 до 16:00, когда ультрафиолетовое излучение наиболее интенсивно.

* Носите свободную одежду из натуральных тканей светлых тонов, она лучше отражает солнечные лучи. Не забывайте про головной убор с широкими полями и солнцезащитные очки. Кроме того, желательно женщинам пользоваться солнцезащитными зонтами.

* Используйте солнцезащитный крем с SPF 30 и выше, наносите его за 20 минут до выхода на улицу и обновляйте каждые 2 часа, особенно после купания.

* Пейте больше жидкости, лучше всего простую воду. Лучше всего при выходе на улицу иметь с собой бутилированную минеральную воду. Избегайте сладких газированных напитков и алкоголя, они способствуют обезвоживанию.

* Ешьте лёгкую пищу, фрукты и овощи. Избегайте жирной, жареной и острой пищи.

* Принимайте прохладный душ или ванну несколько раз в день.

* Если вы почувствовали себя плохо на солнце, немедленно уйдите в тень, выпейте воды и обратитесь к врачу.

Большое спасибо, Сураё Эргашевна, за ценные советы! Надеюсь Ваши рекомендации помогут людям уберечь себя от негативного влияния установившейся жаркой погоды и оставаться здоровыми!

**Беседу вёл**
**Отабек Бегиджанов**

## ДОК «КИМЁГАР» ОБЕСПЕЧИВАЕТ ШКОЛЬНИКАМ КАЧЕСТВЕННЫЙ ОТДЫХ И ИНТЕРЕСНОЕ ВРЕМЯПРЕПРОВОЖДЕНИЕ ЛЕТОМ

**С северо-востока обрамлённый небольшими горными массивами Памиро-Алайского хребта с их заснеженными вершинами находится Кувасайский район Ферганской области где протекает река Исфайрамсай находится детский оздоровительный комплекс «Кимёгар» акционерного общества «Farg'onaazot».**

В этом неповторимо красивом уголке природы ежегодно поправляют свое здоровье и отдыхают дети заводчан.

Руководством предприятия приняты меры и налажена работа по эффективной организации деятельности, надежной и бесперебойной работе систем бытового, коммунального, транспортного и медицинского обслуживания ДОК «Кимёгар». В этой связи необходимо отметить что в течении всего мая месяца шла интенсивная подготовка лагеря к летнему сезону. За этот период был осуществлён ремонт спальных корпусов, административно-бытовых помещений, медицинского пункта. Усилиями специалистов предприятия были приведены в полный порядок система электро - водоснабжения и канализации. Также была проведена работа по благоустройству и озеленению территории ДОК «Кимёгар». К данным работам помимо работников ремонтно-строительного цеха и хозяйственного цеха были привлечены работники со всех структурных подразделений общества. Кроме того, для транспортного обслуживания оздоровительного комплекса предприятием были выделены автомобили. В результате выполненных работ, к концу первой декады июня лагерь был полностью готов для того чтобы принять детей на период летних каникул.

В результате проделанных работ 11 июня текущего года состоялся первый заезд детей в детский оздоровительный комплекс «Кимёгар», для организованной отправки детей Автотранспортным цехом предприятия были выделены 7 вместительных автобусов «Нефаз».

В первую смену в детском оздоровительном комплексе предприятия интересно и содержательно провели время более 250 детей заводчан. Столько же детей принял лагерь и во вторую смену. Для организации культурного досуга детей приглашены театральные коллективы из Ташкента и Ферганы, которые покажут свои постановки. Также подготовлены различные конкурсы, викторины и спортивные мероприятия. Для этих целей за счёт профсоюзного комитета предприятия были закуплены спортивные принадлежности. Кроме того, в распоряжении детей имеется богатая библиотека с художественной литературой. В ДОК «Кимёгар» имеется столовая, где опытные повара готовят различные горячие блюда и салаты, к слову в столовой организовано 4-х разовое питание. В жаркие летние дни дети особенно любят принимать водные процедуры, а для этого в оздоровительном комплексе имеется два бассейна для детей младшего и старшего школьного возрастов. Охрана здоровья детей имеет первостепенное значение, поэтому в оздоровительном комплексе функционирует медицинский пункт, состоящий из опытного врача педиатра и медицинской сестры.

Для качественной организации отдыха школьников, администрация предприятия, привлекла на работу в летний период персонал, имеющий большой опыт работы с детьми. Кроме штатного персонала ДОК «Кимёгар» будут осуществлять уход за детьми 39 сезонных работника.

Подводя итог можно уверенно сказать, что, отправляя ребенка в ДОК «Кимёгар», родители могут быть уверены, что их ребёнок проведет лето не только весело, но и с пользой. Здесь дети научатся не только общаться со сверстниками, но и быть самостоятельными и ответственными.



Материалы 3-й и 4-й полос подготовил Отабек Бегиджанов

Kimyogar

MUASSIS:
«Farg`onaazot»
aksiyadorlik jamiyati

ISSN 2010-9830

Bosh muharrir:
E'zozxon ABDULLAYEVA.

Manzil: 150108,
Farg'ona shahri,
Sanoat ko'chasi, 222.
«Farg'onaazot» AJ.
Tel.: 242-66-01; 65-33

*Gazeta Farg'ona viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007-yil 7-mayda 12-082 raqami bilan ro'yxatga olingan.*

**Gazeta «Poligraf-Press» MCHJ bosmaxonasida 2000 nusxada ofset usulida chop etildi.**

Bosmaxona manzili: Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi 236 «B» - uy. Qog'oz bichimi A-2. Buyurtma: ____-son.

Bosmaxonaga topshirish vaqti: soat 9:00. Bosishga ruxsat etildi: soat 11:00. 24.06.2024-yil.

**Ushbu songa mas'ul: E'zozxon ABDULLAYEVA.**

**Rasmlar muallifi: Mirjalol G'ULOMNAZIROV.**

*Ushbu gazeta «Farg'onaazot» AJ ishchi-xodimlariga bepul tarqatiladi.*

Aziz mushtariylar, gazetamizning ushbu nashrida muqaddas diniy so'zlar mavjudligi sababli gazetani har yerga tashlamasligingizni iltimos qilamiz!